

**FORS VILOYATINI UMARSHAYX MIRZOGA SUYURG‘OL SIFATIDA TAQDIM
ETILISHI**

Begimqulova Laylo Mashrabovna

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarix kafedrası v.b. dotsenti

e-mail: beginqulova@internet.ru

Nishonov Usmonbek Karimovich

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarix kafedrası 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Umarshayx mirzoning Fors viloyati hokimi etib tayinlanishi, Umarshayx mirzo tamonidan Fors viloyati va uning atrofıdagi hududlarni bo‘ysundirilishi va u yerlarda hokimiyatni mustahkamlanishi. Umarshayx mirzo tamonidan davlat boshqaruvi ishlarini o‘rganilishi va “devoni mazolim” ariza va shikoyatlar devonini tashkil qilib, davlat ishlarini tartibga solinishi hamda, Umarshayx mirzo davrida Fors viloyati, boshqaruvi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Umarshayx mirzo, Muhammad Sulton, Mirzo Pir Muhammad Mas‘ud Sabzavoriykim, Ali Muayyid, Usmonbek, Sulton Ahmad, Berdibek, Sari Bug‘a, Ziyrak Jaku, Sevinchak Bahodur, Bekkichik Jeta, Bayon Temur, To‘kal Hindu Qarqara, Malash Apardiy, Davlat Xoja, Sabzavor, Fors

ПЕРЕДАЧА ОБЛАСТИ ФАРС УМАРШАЙХУ МИРЗЕ В КАЧЕСТВЕ СУЮРГАЛА

Бегимкулова Лайла Машрабовна

Ферганский государственный университет, исторический факультет, кафедра истории Узбекистана и.о. доцент

электронная почта: beginqulova@internet.ru

Нишонов Усмонбек Каримович

Ферганский государственный университет, исторический факультет, кафедра истории Узбекистана, магистрант 1 курса

Аннотация: В статье рассматривается назначение Умаршейха Мирзы правителем области Фарс, подчинение им области Фарс и прилегающих территорий, укрепление власти в этих регионах. Анализируются вопросы управления государственными делами, в частности, организация Умаршейхом Мирзой приемной для жалоб и заявлений, что способствовало упорядочению государственных дел. На основе исторических источников исследуются вопросы управления, политического и социально-экономического положения Фарского региона в период правления Умаршейха Мирзы.

Ключевые слова: Умаршейх Мирза, Мухаммад Султан, Мирзо Пир Мухаммад Масуд Сабзавари, Али Муайид, Усманбек, Султан Ахмад, Бердибек, Сары Буга, Зирак Джаку, Севинч Бахадур, Беккичик Джета, Баян Темур, Токал Хинду Каркара, Малаш Апарди, Даулат Ходжа, Сабзавар, Фарс.

TRANSFERRING THE FARIS REGION TO UMAR SHEIKH MIRZA AS SUYURGAL

Begimkulova Laylo Mashrabovna

Acting Associate Professor at the Department of the History of Uzbekistan,

the Faculty of History, FSU

e-mail: beginqulova@internet.ru

Usmonbek Karimovich Nishonov

The Department of the History of Uzbekistan,

Master's student of the 1st level, FSU

Abstract: The article deals with the appointment of Umar Sheikh Mirza as the ruler of the Fars region, his subordination of the Fars region and adjacent territories, and consolidation of power in these regions. The article analyses the issues of management of state affairs, in particular, the organisation by Umar Sheikh Mirza of a reception room for complaints and applications which helped to streamline state affairs. On the basis of historical sources the questions of management, political and socio-economic situation of Fars region during the reign of Umar Sheikh Mirza are investigated.

Keywords: Umar Sheikh Mirza, Muhammad Sultan, Mirzo Pir Muhammad Masud Sabzavari, Ali Muayyid, Usmanbek, Sultan Ahmad, Berdibek, Sary Buga, Zirak Jaku, Sevinc Bahadur, Bekkichik Jeta, Bayan Temur, Tokal Hindu Karkara, Malash Apari, Daulat Khoja, Sabzavar, Fars.

Fors viloyati bosib olinayotganda Umarshayx mirzo ham qatnashadi. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday ma'lumot beradi: "Amirzoda Muhammad Sulton va inisi mirzo Pir Muhammad Boshi Xartun darbandidin muzaffar va mansur qaytib, hazrat sohibqiron o'rdu sig'a kelib qo'shuldilar. Sohibqiron Sevinchak Bahodurni Huvayzag'a yibardikim, Umarshayx mirzoni kelturgay, va Xoja Mas'ud Sabzavoriykim, Ali Muayyidning xohar zodasi erdi, Tustarg'a hukm qildi va Sabzavor cherikini anga tobshurdi va o'zi cherik bilan ilg'or qilib, rabi aloning yigirma beshida, dushanba kuni tahaqu yilda, torix yetti yuz to'qson beshda davlat va saodat bilan Sheroz sori mutavajjih bo'ldi. Amirzoda Umarshayx Huvayzani olib, ul viloyatlarni zabt qilib, peshkashlar bilan kelur erdikim, hazratdin anga kishi borib, ang'a xabar berdikim, sohibqiron Sheroz sori keti va "Senga hukme bo'ldikim, o'g'ruqni boshlab keyindin kelgaysen" Sohibqiron o'ning yigirmi yettisida, chahorshanba kuni Dudonga suyidin kechib, juma kuni yigirma to'qquzida Sho'rxon kanda suyig'a yetib tushti. Va shanba kuni, jumadul-avval oyining boshida Rom Hurmuzda tushti. Otabek Pir Ahmadkim, Luri Buzurgnung hokimi erdi, peshkashlar bilan olampanoh dargohida kelib, beklarni ko'rub, beklar ani peshkashlari bila sohibqironga ko'rsattilar va hazratga mulozim bo'ldi. Bu mahaldakim, viloyat sohibqiron tasarrufida bo'ldi, barcha viloyatlarning sodot va sazot va arboblari kelib, bu vose'alarni arz qildi va dedilarkim, "Umidimiz sizdin ultururkim, bu viloyatlarda yana Oli Muzaffarni qo'ymagaysiz. Va agar yana bularga bu viloyatlarda daxl bersangiz, viloyat buzulur va faqiru miskin xarob bo'lur". Bu jihatdin sohibqironi dinparvardin dushanba kuni, jumadul-oxir oyining yigirma uchida hukm bo'ldikim, "Oli Muzaffarni tutub, berkitsunlar" Alarni tutub mollarni taladilar. Va Usmonbek kishi yibardikim, Sulton Ahmadning xazinasikim, Kermonda erdi, kelturdilar va hazrat sohibqiron Fors viloyatini shahzoda Umarshayx mirzoga berdi. Va amir Berdibek Sari Bug'a va amir Ziyarak Jaku va Sevinchak Bahodurni shahzoda Umarshayx qoshida so'ydikim, bir yilgacha shahzoda qoshida turgaylar. Va shahzodaning xos beklari Bekkichik Jetaning o'gli Bayan Temur va To'kal Hindu Qarqara va Malash Apariy va Davlat Xoja va o'zgalar mulozimlarda erdilar. Va G'iyosuddin Barlosning o'g'li Idikuni Kermon viloyatida daruga qo'ydi. G'iyosuddinkim, Jakubekning inisi erdi, Yazdni anga berdi va Lolam Qo'rchini Abarko'hda hokim qilurdi va bir necha kishini

Sirjonga yibardi. Va ul qal'ada Sulton Abu Ishoqqa taalluq Gudarz otliq bir kishi qutvol erdi. Bu qissani eshitib, qal'aning berkligiga e'timod qilib, qal'ani berkitti"¹.

Umarshayx mirzoning Forsdagi hokimligi va bir necha qal'alarni olgani to'g'risida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday ma'lumot beradi: "Shahzoda Umarshayxkim, asru oqil va dono va bahodur erdi, sohibqiron ani Fors viloyatida qo'yub erdi. Bir yilg'acha Fors viloyatida muxoliflarlardagi qal'alarni fath qildi. Chun Istahr qal'asini va Fadak qal'asi va Garmsirda Shahriyor qal'asini, bularni barchasini oldi va Sirjon qal'asinikim, ba'zi beklar ani qamal qilib, hanuz olmaydur edilar, shahzoda anda borib erdi. Sohibqiron ul vaqtda Misr va Shom sori mutavajjih erdi va Diyrbakr sori borg'onda shahzodai mushori ilayhig'a kishi yibarib erdikim va ul kishi ul mahalda yettikim, shohzoda ul qal'ani qamal qilib o'lturub erdi. Shohzoda sohibqironidin xabar bilib, Idiku Barlos va Shohshohonkim, Seyiston darug'asi erdi va Pir Ali Sulduzni ul qal'aga qo'yub, o'zi Sheroz sori mutavajjih bo'lub, anda borib, yarog'ini qildi. Va Sevinchakbekni Fors mamlakatining zabti uchun qo'yub, o'zi hazrat sohibqiron sori mutavajjih bo'ldi. Va Sevinchak Qo'handiz qal'asinikim, Shoh Shujo' buzub erdi, imoratiga mashg'ul bo'ldi. Va shahzoda cheriki bilan Shuliston yo'lidin yurub, Kurdistondin o'tub, yo'lda bir qal'ada yettikim, ani Xurmatur der edilar va oz kishi anda bor erdi. Shahzoda tafarruj qilmoq uchun ul qal'ag'a yaqin keldi va bir nodon badbaxte qa'adin o'q otib, qazodin ul o'q shahzodaning shurkiga tegib shahid bo'ldi. Farzandi arjumandi shahzoda Pir Muhammad va beklari hayron qolib, hech chora tonmadilar. Va bu voqea qish o'rtasida, rabi'al-avval oyida, yetti yuz to'qson oltida, tovuq yilda voqe bo'ldi. Va shahzoda qirq yil yashab erdi. Cherik yig'lamoq va un tortmoq va faryod bila mashg'ul bo'lub, ul qal'ani yer bila teng qildilar va hech kishini anda tirik qo'ymadilar"².

Umarshayx mirzoning vafot etganligi xabarini Sohibqironga yetkazishdi. Buni eshitgan Amir Temur farzandidan ayrilganina g'am chekdi.

Amir Temur Fors viloyatini hokimligini Umarshayx mirzoning o'gli 10 yoshli shahzoda Pir Muhammadga berdi. Umarshayx mirzo vafot etgach Sherozda motam o'tkazilgan. Bir necha kundan so'ng xotinlari Sevinch og'o, Qutlug' Og'o, Bek og'o va Malika og'o va o'g'li amirzoda Iskandar tobutni Sherozdan Keshga olib keldilar.

Amir Temur Umarshayx mirzoni Fors viloyatiga hokim qilib tayinlaganidan keyin, o'zi Bog'dodga qarab ketadi. Umarshayx mirzo Fors viloyati va uning atrofidagi hududlarni bo'ysundiradi va u yerlarda hokimiyatni mustahkamlaydi. U davlat boshqaruvi ishlarini tartibga soldi va "devoni mazolim" ariza va shikoyatlar devonini tashkil qilib, davlat ishlarini tartibga soldi. Shoh Mansurning tog' cho'qqilarida joylashgan Ranba va Farak qal'alarini bo'ysindirish uchun qo'shin yuboradi. Sarband ko'prigida mustahkamlanib olgan ayrim sipohlarni o'ziga bo'ysundiradi. Shundan so'ng shahzodalarni chaqirtirish uchun Andijonga boradi va o'zi Sirjon qal'asini bo'ysundirish uchun jo'nab ketadi. Andijonda qolgan shahzodalar otalarining farmonlariga bo'ysinib, darhol Fors viloyatiga qarab yuradilar³. Andijon tarafdin shahzodalarning kelayotganini eshitgan Umarshayx mirzo Sirjon qal'asi fathini Siston shahonshohi va Kirmon shahonshi Idikuga topshirib, o'zi Sherozga qarab yo'l oladi. Natanziy Umarshayx mirzo tomonidan Isfahon hududidan to Sherozgacha bo'lgan hududlarda sayilgohtar bunyod ettiradi.

¹ Yazdiy. Zafarnoma. – B.125.

² Yazdiy. Zafarnoma. – B.163.

³ Natanziy. Muntaxab ut-tavorix. – B.201

Shahzodalar kelganidan keyin, Sohibqirondan maktub kelib, Umarshayx mirzoni huzuriga chaqaradi. Amirzoda Umarshayx mirzo Iroq va Fors mulki boshqaruvini Iskandar mirzoga topshirib, o'zi Amir Temurning huzuriga jo'nab ketadi. U bilan hamrohlikda Pir Muhammad mirzo jo'nab ketadi. Amirzoda Umarshayx mirzo Bag'dodga yetib keladi va dam olish uchun Kurdiston tog'larida to'xtaydi. Bir sayidning izidan borib, burgut patli o'qni muborak qo'li bilan kamondan o'tayotganda, bir qoqilib ketdi va uning nozanin vujudi egar ustidan yerga yiqilib tushdi. Og'riq zo'ridan hushidan ketdi. Harchand dori-darmonlar berilsada, og'riq bosilmadi. Amirzoda Umarshayx mirzo u yerning kutvolini chaqirish uchun harchand farmonlar jo'natmasin, buyruqlar bajarilmadi. Amirzoda o'sha yerga o'tlanadi va bu yerning aholisi qo'llariga turli narsalar bilan qarshilik qilishadi. Qal'a hujumi vaqtida Umarshayx mirzo kamondan o'q uziladi va halok bo'ladi. Uni jasadini Sherozga olib kelishdi. Bu xabar Mordin tarafga yetkazildi. Sohibqironga bu xabar yetkazildi va motam marosimlari o'tkazildi. Shundan so'ng, shahzodalarni Fors viloyatiga yuborib, Shom o'lkasi fathini bekor qilib, Jaziraga qarab yurdi⁴. Xondamir ham Umarshayx mirzoning Fors mamlakatini boshqarishi haqida to'xtalib o'tgan. Bu davrda viloyatni adolatli, yaxshi boshqargani haqida ma'lumot berib o'tadi. Umarshayx mirzoning Xurmatu qal'asini qurshab olgani va bu yerda bo'lgan janglar haqida to'xtalar ekan, o'q tegib o'sha yerning o'zida vafot etgani haqida ma'lumot beradi. Pir Muhammad mirzo boshchiligida Sheroz shahriga olib kelishgani haqida aytib o'tadi⁵.

T.Fayziyev ham bu masalaga to'xtalib o'tar ekan, Istahr, Farak, Shaxriyor qal'alarini zabt etish topshirig'i ham berilgani aytiladi. Shuningdek, muallif Umarshayx mirzoning olti o'g'il qolgani, kattasi Pir Muhammad 16 yoshda edi, ulardan keyingisi Rustam mirzo, Iskandar mirzo, Ahmad mirzo, Saydi Ahmad mirzo, Bayqaro mirzolar edi. Amir Temur Fors davlati boshqaruvini 16 yoshli Pir Muhammad mirzoga topshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарофиддин Али Яздий. «Зафарнома». Т., «Мехнат», 1994 йи.
2. Shomiy. Zafarnoma. – B.143-144
3. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
4. Natanziy. Muntahab ut-tavorixi Muiniy. – B.12
5. Shomiy Zafarnoma. – B.82
6. Xondamir.Habib us-siyar. – B. 311
7. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN THE WORKS O
8. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES THAT TOOK PLACE IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN FRENCH HISTORIOGRAPHY. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 76-78). F ENGLISH HISTORIANS. In *INNOVATIONNOE RAZVITIE: POTENTIAL NAUKI I SOVREMENNOGO OBRAZOVANIYa* (pp. 65-67).

⁴ Natanziy. Muntahab ut-tavorix. – B.202

⁵ Xondamir.Habib us-siyar. – B. 311

9. Begimkulova, L. M. (2020). Amir Tumor vafotining dastlabki kunlaridagi siyosiy jarayonlarda SHayx Nuriddin va SHohmaliklarning tutgan o'ri. *Vzglyad v Proshloe*, 3(11).
10. Begimkulova, L. (2022). Amir Temur vafotidan keyin Movarounnahrda yuz bergan tarixiy voqiyalarga turkiyalik temurshunoslar qarashlari. *Barqarorlik va yetakchilik tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 223-225.
11. Begimkulova, L. (2022). Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 127-133.
12. Begimkulova, L. XVasr boshlarida Movarounnahrda kechgan siyosiy voqealarda Saroymlukxonimning tutgan o'ri. *Journal of innvatsinsin in social sciences* 2022. 100-104 betlar.
13. Begimkulova, L. Rui Gonsales De Klavixo About Temurian Princesses. *Modern Journal of Sciences and Humanities*.2022.631-635
14. Begimkulova, L. Temuriylar davriga Rossiya Imperiyasi hamda sovet davri tarixchilarining qarashlari. *FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.739-741-betlar.
15. Begimkulova, L. Temuriy shahzodalarni harbiy va davlat ishlariga tayyorlashda otaliq amirlarning o'ri. *FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.755-756-betlar.
16. Begimkulova, L. Temuriy shahzodalarning taxt uchun keskin harakatlari (1405-1406 yillar).*FarDU Ilmiy xabarlar*. 2022.749-750-betlar.
17. Begimkulova, L. Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. *International Journal of Formal Education* 2022. 127-133 betlar.
18. Begimkulova, L. Study of the history of Amir Temur and the Timurid eraduring the years of independence. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*. 2023. 102-106 betlar.
19. Begimkulova, L. Administrative structure and management procedures of the state of Amir Temur. *international bulletin of applied science and technology*. 2023. 932-935 betlar.
20. Begimkulova, L. Amir Temur davri tarixini yorituvchi manbalar tahlili. *Евразийский журнал технологий и инноваций* 2023. 211–215 betlar.
21. Begimkulova Laylo Mashrabovna AMIR TEMUR TARIXIDAGI BUYUK SARKARDALIK FAOLIYATI *Journal of Advanced Research and Stability* Volume: 03 Issue: 12 | Dec - 2023 ISSN: 2181-2608
22. Begimkulova Laylo STUDY OF AMIR TEMUR'S LIFE AND STATE ACTIVITY. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579"Best Research Methods of Science, Education and Modernity"